O‘ZBEK TILIDA UNDOV SO‘ZLARNING XUSUSIYATLARI

Serkaboyeva Sevinch Komil qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: ***F.S.Baxtiyorova***

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida undov so‘zlarning nazariy-grammatik va semantik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Undov so‘zlarning boshqa mustaqil so‘z turkumlaridan farqli jihatlari, gap bo‘lagi vazifasini bajarmasligi hamda so‘zlovchining his-hayajoni, irodasi va munosabatini ifodalashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, undovlarning turlari (his-hayajon va buyruq-xitob undovlari), ularning ohang va vaziyatga ko‘ra turli ma'no qirralarini kasb etishi misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: undov so‘zlar, his-hayajon undovlari, buyruq-xitob undovlari, leksik-semantik xususiyatlar, nutq ta'sirchanligi.

Abstract: This article scientifically analyzes the theoretical, grammatical, and semantic features of interjections in the Uzbek language. It highlights the distinct characteristics of interjections compared to independent parts of speech, noting that they do not act as sentence constituents and serve to express the speaker's emotions, will, and attitude. Furthermore, the types of interjections (emotional and imperative interjections) and their various semantic nuances depending on intonation and context are illustrated with examples.

Keywords: interjections, emotional interjections, imperative interjections, lexical-semantic features, speech expressiveness.

Аннотация : В данной статье научно анализируются теоретические, грамматические и семантические особенности междометий в узбекском языкознании. Освещаются отличительные черты междометий от самостоятельных частей речи, их синтаксическая роль (невыполнение функции членов предложения), а также значение в выражении эмоций, волеизъявления и отношения говорящего. Кроме того, на примерах раскрываются виды междометий (эмоциональные и побудительные) и оттенки их значений в зависимости от интонации и контекста.

Ключевые слова: междометия, эмоциональные междометия, побудительные междометия, лексико-семантические особенности, выразительность речи.

Kirish: Undov so‘zlarning nazariy - grammatik -semantik xususiyati dunyo tilshunosligida ko‘pgina olimlar, jumladan, M. Gutner, I.S. Misyavichene,

T.V.Paxolkova tomonidan o‘rganilgan . O‘zbek tilshunosligida esa mazkur turkum so‘zlarini monografik jihatdan o‘rganish o‘tgan asrning 50-yillariga to‘g‘ri keladi. O‘zbek tilshunosligida undov so‘zlar atroflicha o‘rganilib, ilmiy xulosalar chiqarilib, tasnif hamda tavsif etilgan. Bu borada dastlabki ishlardan biri S.Usmonov tomonidan amalga oshirilgan. Olimning "Hozirgi zamon o‘zbek tilida undovlar" nomli tadqiqotida undov so‘zlarning o‘ziga xos grammatik xususiyatlari ochib berilgan, ular semantik jihatdan tasniflangan[5]. Mazkur tadqiqotdagi undovlar haqidagi nazariyalar o‘zbek tilida yaratilgan darslik va qo‘llanmalar uchun shu mavzuni yoritishda ma’lum ma’noda xizmat qildi, deyish mumkin.

Nisbatan keyin yaratilgan “O‘zbek tili grammatikasi” kitobida “Undov” so‘zlarning ma’no turlariga kengroq o‘rin ajratilganligini kuzatamiz (Bunda undov so‘zlar – R.Qo‘ng‘urov tomonidan yozilgan). Shuningdek, undov so‘zlarning murakkabroq ko‘rinishlari, ya’ni ma’no jihatdan oraliq holatlarga ega birliklar ham kuzatilib, ular “alohida gruppa undovlari” sarlavhasi ostida talqin etilgan.

Nisbatan keyingi davrlarda undov so‘zlar bilan bog‘liq turlicha qarashlar ham yuzaga keldi. Jumladan, Sh. Rahmatullayev undovlarni bog‘lovchilar va yuklamalar qatorida o‘rganishni tavsiya etadi [3]. I.Madrahimov undovlarni taqlid so‘zlar bilanbir guruhga “tasvirlovchi leksemalar” qatoriga kiritsa [2], yangi tadqiqotlarda, jumladan, R.Bobokalonov o‘z dissertasiyasida undov so ‘zlarni nomustaqil lug‘aviy ma’noli so‘zlar guruhi, ya’ni so‘z-gaplar tarkibiga kiritib o‘rganishini bayon etadi [1].

Q.Sapayevning “Hozirgi o‘zbek tili” qo‘llanmasida ta’kidlanishicha, undov so‘zlar so‘zlovchining his-hayajoni, buyruq-xitobi va chaqiriq-haydash mazmunini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu turkum vakillari leksik ma’no anglatmasligi hamda kelishik, egalik, son affikslari bilan turlanmasligi sababli mustaqil so‘zlardan farqlanadi. Qolaversa, ularning nutqda boshqa so‘zlar bilan grammatik bog‘lanmasligi va gap bo‘lagi bo‘lib kelmasligi asosiy xususiyatlaridan biridir. Undovlar faqat otlashganda (substantivlashganda) gapda bosh yoki ikkinchi darajali bo‘lak rolini o‘taydi**. Masalan:** *Oh urarman, ohlarim ursin seni (qo‘shiqdan).*

His-hayajon, buyruq-xitob, haydash-chaqirishni ifodalovchi so‘zlar *undov so‘zlar* sanaladi. Undovlar ma’nosiga ko ‘ra ikki guruhga bo ‘linadi:

1) his-hayajon undovlari;
2) buyruq-xitob undovlari.

1.His-hayajon undovlari(emotsional) undovlari kishilarning *quvonchlari, erkalanish, rohatlanish, hayron qolish, norozilik, g‘azab-nafrat, og‘riq* singari hissiyotlarni ifodalaydi. *Eh, uh, o, e, uf, voy, ura, bay-bay, voy-bo‘y, a, ax, ohho, ey, ahhe, i, iye, o‘h, o‘hho‘, hm, him, be, tuf, hah, ho, hay-hay, eh, o‘, iyi.*

1. **Ura!** Men imtihondan a’lo baho oldim. *(quvonch)*
2. **Voy, jonim!** Qanday shirin bolajon ekansan! *(erkalanish)*
3. **Oh!** Bahor havosidan bahra olish naqadar yoqimli! *(rohatlanish)*

4. **Voy-bo‘!** Bu bino naqadar chiroyli ekan! *(hayron qolish)*

5. **Iya!** Bunday qo‘pol muomala qilishga qanday jur’at etding?! *(g‘azab-nafrat)*

6. **Obbo!** Oyog‘imni toshga urib oldim, juda og‘riyapti! *(og‘riq)*

His-hayajon undovlari odatda gap bo‘lagi vazifasini bajarmaydi. Ular kirish so‘z, yoki so‘z-gap bo‘lib kelishi mumkin.

Hay-hay, qanday mazali! *(kirish so‘z vazifasida)*

Uf! – dedi Xatira xola. *(gap)*

Yo Ollo!.. Yakkasan, yagonasan! *(Oybek)*

Undov so‘zlar undalmalardan oldin kelganda undov so ‘z va undalma o‘rtasida vergul qo‘llanilmaydi**:** **Oh** zolim falak, yiqil boshimga! Undov so‘z undalmadan keyin qo‘llanganda esa, undov so‘zdan oldin chiziqcha qo‘yiladi: **Bolam-ey,** qachon aqling kiradi.

2. Buyruq-xitob (imperative) undovlariga esa quyidagicha ta’rif beriladi. Kishilar diqqatini tortish, jonivorlarni haydash, chaqirish va to‘xtatish uchun qo‘llaniladigan undovlar *buyruq-xitob undovlari* hisoblanadi. Buyruq-xitob undovlari ikki xil bo‘ladi:

1) odamlarga qaratilgan undovlar: a) kishilarning diqqatini tortish uchun qo‘llanadigan undovlar: *hoy, hay, hey, allo, ey;* b) ta’kid, buyurish uchun qo‘llanadigan undovlar: *ma,tss, jim, marsh.*

Hey, menga qara, Gulchehra, - dedi u. *(O. Yoqubov)*

Hay usta, - dedi Ma’suma beka, - shu payt bu chiziqlaringiz kimning qulog ‘iga kiradi*! (Mirmuhsin)*

2)hayvonlarga yoki boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar: a) hayvon va boshqa jonivorlarni chaqirish uchun qo‘llanadigan undovlar: *kisht, bah-bah, mosh-mosh, tu-tu-tu, beh-beh, qurey-qurey*; b) hayvon va parrandalarni biror harakatdan to‘xtatish uchun qo‘llanadigan undovlar: *ishsh, ho‘k, tak, drr;* d) hayvon va parrandalarni biror ishni bajarishga undash uchun ishlatiladigan undovlar: *pisht, xix, hov-hov, cho‘k, tek, hayt, chu.*

Kis-kis! Mushugim, bu yoqqa kel!

Trr-trr! Otni to‘xtatish uchun jilovni tortdi.

Chu! deb, dehqon otni aravani tortishga undadi.

Undovlarundov ohangi bilan ajralib turadi, lekin undov ohangi xilma-xildir. Bir undov so ‘z turli ohang bilan talaffuz qilinib, turli xil ma’nolarni ifolashi mumkin. Masalan, **Hay-hay, qanday mazali** *(rohatlanish, zavqlanish**);*** **Hay-hay, tegma** (*buyurish);* **Hay-hay, yigitlar bu yoqqa!** *(undash, ta’kidlash);* **Hay-hay,shakkorlik qilmang** (*fikridan qaytarish) va* boshqalar.

Xulosa: o‘zbek tilshunosligida undov so‘zlar o‘ziga xos leksik-semantik va grammatik tabiatga ega bo‘lgan turkum sifatida tahlil qilinadi. Undovlar boshqa

mustaqil so‘zlardan farqli o‘laroq, gap bo‘lagi vazifasini bajarmasligi, grammatik bog‘lanishga kirishmasligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ular ikki asosiy guruhga — his-hayajon va buyruq-xitob undovlariga bo‘linib, nutqning ta'sirchanligini oshirishda, so‘zlovchining ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari hamda irodasini ifodalashda muhim xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan tahlillar undovlarning ohang va vaziyatga ko‘ra turli ma'no qirralarini kasb etishini yaqqol ko‘rsatib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobokalonov . R. O‘zbek tilida semantic-funksional shakllangan so‘z-gaplar: Filol. fan. nomz. diss. – T., 2000.
2. Madrahimov. I. O‘zbek tilida so‘zlarning serqirraligi va uni tasniflash asoslari: Filol. fan. nom…diss. – T.,1994.
3. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006.
4. Rasulova. N. Ona tilidan ma’ruzalar. – T., 2018. -230-231-b.
5. Umurzakova. G. Undov, tasdiq va modal so‘zlar pragmatikasi (turli tizimdagi tillar misolida): Filol. Fan… bo‘yicha falsafa dok…(PhD). –T., 2023.